

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ashurov Ramzidin Ramazonovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarni intellektual rivojlantirishning nazariy asoslari haqida bayon qilingan. Kichik maktab yoshida idrokning o'tkirligi, so'z mantiqiy tafakkurning mavjudligi, aqliy aktivlikning takrorlashga qabul qilishga qaratilganligi psixikaning rivojlanishi, aqliy rivojlanish uchun mos sharoitlarni yaratib beradi.

Kalit so'zlar: intellekt, mantiqiy tafakkur, aqliy rivojlanish, qobiliyat, layoqat, ijodiy qobiliyatlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ашуров Рамзидин Рамазонович

Преподаватель кафедры психологии Ташкентского государственного педагогического университета имени Низоми

Аннотация: В статье описаны теоретические основы интеллектуального развития учащихся. Острота восприятия, наличие словесно-логического мышления, направленность мыслительной деятельности на принятие повторения в раннем школьном возрасте создают подходящие условия для развития психики, интеллектуального развития.

Ключевые слова: интеллект, логическое мышление, умственное развитие, способности, талант, творческие способности.

THEORETICAL BASIS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS PUPILS

Ashurov Ramzidin Ramazonovich

Teacher of the Department of Psychology of Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

Abstract: The article describes the theoretical foundations of intellectual development of students. Sharpness of perception, availability of verbal logical thinking, orientation of mental activity to acceptance of repetition in junior school age create suitable conditions for development of psyche, intellectual development.

Key words: intelligence, logical thinking, mental development, ability, talent, creative abilities.

Hozirgi kunda aqliy va motivasion rivojlanish muammosi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. SHu ma'noda bu muammo bo'yicha ko'pgina olimlar o'z ishlarini olib borganlar. Ma'lumki, bolalikning har bir davri o'z aqliy darajasiga ega. Kichik maktab yoshida birinchi o'rinda tayyorgarlik, tanlash va eslab qolish qobiliyatlari turadi. Bunda boshlang'ich o'qish davomida taqlid bola intuisiyasi va uning tashabbuskorligiga tayanadi. Bu davrda bolalar suhbatlashishga ehtiyoj sezib bunda: maktabda, sayrda ro'y bergan hodisalar, televizorda ko'rganlari, kitob va jurnalda o'qiganlari haqida hamma narsani gapiradilar. Bo'lishish ehtiyoji o'zida bo'lgan voqelikni yana bir bor ongida jonlantiradi va bu narsa bola taassurotlarining kuchini namoyon etadi.

Kichik maktab yoshida idrokning o'tkirligi, so'z mantiqiy tafakkurning mavjudligi, aqliy aktivlikning takrorlashga qabul qilishga qaratilganligi psixikaning rivojlanishi, aqliy rivojlanish uchun mos sharoitlarni yaratib beradi. Motivasion rivojlanish muammosini ko'pgina olimlar, shu jumladan, A.G.Asmolov, B.G.Ananov, L.I.Bojovich, V.V.Davidov, L.S.Vigoskiy, A.V.Zaparojes, I.S.Kon, B.F.Lomov, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, D.N.Uznadze, L.I.Umanskiy, P.M.Yakobson, V.A.Yakuninlar o'rganganlar. Bundan tashqari G'arb psixologiyasida A.Maslou, A.Adler, K.Rodgers, Z.Freyd o'z qarashlarini keltirib o'tganlar. Bolaning aqliy rivojlanishini esa J. Piaje, L.S.Vigotkiy, A.V.Zaparojes, B.G.Ananov va boshqa bir qator olimlar o'rganganlar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, kichik maktab yoshida idrokning o'tkirligi, so'z mantiqiy tafakkurning mavjudligi, aqliy aktivlikning takrorlashga qabul qilishga qaratilganligi psixikaning

rivojlanishi va boyitilishi uchun mos sharoitlarni yaratib beradi. Bu davrdagi o'qitish imkoniyatlariga ko'pgina omillar guvohlik beradi. Psixologlar ingliz tili fanini o'zlashtirish bo'yicha ikkinchi va beshinchi sinflarda tadqiqot o'tkazadilar. Har ikkala sinfda ham bu fan birinchi marta o'tiladi. Bunda shu aniqlanadiki, ikkinchi sinf o'quvchilari o'zlarining o'ziga xos nutqiy faolliklari tufayli bu fanni yaxshi o'zlashtiradilar. CHet tillar darsida ular qiziqib yangi leksikani va hali o'zlashtirilmagan fonetikani qo'llaydilar, ular xato qilib qo'yishdan qo'rqmaydilar, boshqa tildagi nutq bilan so'zlashuv ularning so'zlashuv ehtiyojlarining bir qismi hisoblanadi va ular hali o'smirlik davrining turli psixologik "tormoz"lariga uchramagan bo'ladilar. SHunday ekan chet tillarga nisbatan alohida yosh sezuvchanligini ajratish mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolaning kelajagini ko'rsatuvchi sifatida biz bolaning aqlan hisoblashga alohida qiziqishini olishimiz mumkin. Taniqli matematik, akademik A.Kolmogorov hisoblashga bo'lgan ilk qobiliyatlar va layoqatlar kattalar bu qobiliyatni rivojlantirishga harakat qilsa-da, tez yo'qolishini ta'kidlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, mashg'ulotlardagi bunday muvafaqqiyatlar faqatgina yosh rivojlanishining epizodi bo'lishi mumkin. Matematikaga bo'lgan haqiqiy iste'dod esa aqlning boshqa sifatlarini talab etib, ular keyinroq vujudga kelishi mumkin. Ushbu bolada esa bu xususiyatlar namoyon bo'ladimi yoki yo'qmi, bu aniq emas. Ba'zi bolalar maktabgacha yoki kichik maktab davrida abstrakt tushunchalarni, sxemalarni, shartli belgilarni tahlil etishda ajablanarli yengillikni his etadilar. Lekin keyinchalik nisbatan aniq tahlil talab etiladi va bunda bolada qiyinchilik tug'ilib, uning aqliy imkoniyatlari bir tomonlamaligi ko'rinib qoladi. Yana bir holatni hisobga olish zarur. Besh yoshli bolaning aqliy faolligi bu narsaning uzoq muddat saqlanishiga kafolat bermaydi. Qiziqishlar va intilishlar o'zgarishi mumkin. SHuningdek, aqliy rivojlanishning yuqori tezlikda kechishi intellektning turli tomonlarini bir yo'sinda egallamaydi: yoshga bog'liq yetuklik qaysidir tomonlama tez rivojlansa, boshqa yo'nalishlarda esa to'xtab qolishlar ro'y berishi mumkin.

Aqliy rivojlanishning bunday notekis kechishi bolaning keyingi rivojlanishida bir qator qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bolaning nima uchun aqliy rivojlanishi undan keyingi kutilmalarni belgilab bermasligiga ko'pgina sabablar mavjud. Intellektning erta rivojlanishi u yoki bu ko'rinishda keyinchalik kamaysada, saqlanib qoladi va bu bolalarning o'ziga xosligi ularning aqliy imkoniyatlarida bo'ladi. Umumiy intellektual va akademik qobiliyatga ega bo'lgan bolalarda aqliy rivojlanish juda tez sur'atlarda kechib, ular asoslangan tushunchalarni egallagan bo'ladilar, axborotni oson eslab qolib esda saqlaydilar. Axborotni qayta ishlash qobiliyatining yuqori rivojlanganligi ularning ko'pgina bilimlar sohasida ustunlikka erishishiga imkoniyat yaratadi. Nisbatan boshqacharoq xarakterga ega bo'lgan akademik iste'dod o'quv predmetlarini muvafaqqiyatli egallash bilan xarakterlanadi. Bu ma'nodagi iste'dodli bolalar matematika, chet tillari, fizika yoki biologiya ba'zida boshqa qiyin o'zlashtiriluvchi fanlardan jiddiy bo'lmagan kuchli o'zlashtirishga ega bo'ladilar. Intilishlarning tanlovchanligi maktab va oilada ko'pgina muammolarni tug'diradi. Ota-onalar va o'qituvchilar bolaning barcha fanlardan bir xil bilim olmayotganligidan norozi bo'ladilar va bolaga qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratmaydilar. Akademik iste'dodning keng tarqalgan turi sifatida matematik iste'dodni ko'rsatish mumkin. Bunday aqliy rivojlanishi jadal bo'lgan iste'dodli bolalarni o'rganish va ularga ta'lim tarbiya berish hozirgi kundagi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Ijodiy qobiliyatni o'rganuvchi ko'pgina psixologlarning fikricha insonda oldindan ijodiy faollikka intilish mavjud bo'lar ekan. Ijodiyotda ehtiyojlarni qondirishga intilish insonning ijodiy qobiliyatlari rivojlanuvchi ijodiy faoliyatgabo'lgan motivlarning shakllanishiga zarur sharoit hisoblanadi. SHuning uchun ham motivlar yoki ijodiy motivasiya qay tarzda umumiy aqliy qobiliyatlar rivojlanishiga olib kelishini ko'rib chiqamiz.

D.Uznadze fikricha, vital va bilish ehtiyojlari, shuningdek, ijtimoiy aloqaga bo'lgan ehtiyoj substansional ehtiyojlar sinfiga kiradi. Ulardan farqli ravishda funksiyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj ham mavjud. D.Uznadzening ko'rsatishicha, psixik funksiyalar rivojlanishi davrida mos sharoitlarda ijodiy xulq kabi faollik formasini chaqiruvchi kuchlarni harakatga keltirish ehtiyoji yuzaga keladi. SHaxsning o'z-o'zini aktualizatsiyasi muammosi gumanistik psixologiyada K.Rodgers, individual psixologiyada A.Maslou, individual psixologiyada A.Adler tomonidan, boshqa psixologik maktablar nomoyondalari va hozirgi kunda ishlanayotgan akmeologiyada izchil ravishda o'rganilgan. A.Adler bo'yicha insonlar o'z shaxsiy hayotlaridan to'g'ri foydalanishlari uchun ijodiy kuchga egalar, shuning uchun insonni belgilovchi sifati mustaqil anglangan faollik hisoblanadi. Bunday ijodiy kuch inson tajribasining har bir chegarasiga: idrok, tafakkur, xotira, orzular, tasavvurlarga ta'sir ko'rsatadi. A.Maslouning takidlashicha, beshinchi darajadagi ehtiyojlarning (uning inson ehtiyojlari ierarxik modeli bo'yicha) yuqori ehtiyojlarning qondirilishi insonning boshlang'ich motivasion kuchini amalga oshirishga

ijodiyot va o'z-o'zini aktualizatsiyalashga ehtiyojni tug'diradi. A.Maslouning fikricha, ijodiyotga bo'lgan va o'z-o'zini aktuallashtirishga bo'lgan ehtiyoj qondirilsagina inson haqiqiy qoniqish oladi [1, 4,5, 8]. Inson hayot tarzi uning kasbi bo'sh vaqtida nima bilan shug'ullanishiga bog'liq ravishda muvafaqqiyatga erishishga ehtiyoj keng diapozonda namoyon bo'lishi mumkin.

YU.M.Orlov fikricha, "Erishuvchi shaxs ixtiro, rasionalizatorlik taklifi, yangi nazariya yaratish ustida mavqei uchun yoki rasmiy tarzda yoxud moddiy rag'batlantirish uchun ishlamaydi, balki bu faoliyatning uchun birinchi navbatda ulkan qoniqish berishi uchun ham harakat qiladi. Bunday odamlar harakati har doim ham tan olinmaydi va mukofotlanmaydi. Muvafaqqiyatga erishish ehtiyojlarini shakllanishi haqida gap ketganda shuni takidlash joizki, bu ehtiyoj ijtimoiy ehtiyojdir. Insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanish sharoitlarini ko'pincha o'rganilishiga qaramasdan, bu muammo psixologiyada dolzarbligicha qolmoqda. Ijodiy qobiliyatlar o'qish-bilish qobiliyatidan insonda shaxslilik mezonlari ko'proq namoyon bo'lishi bilan farqlanadi. Bu haqida D.B.Bogoyavlenskaya bilish jarayoni qabul qilingan vazifa tomonidan faqatgina birinchi bosqichda determinantlashishini aytib o'tadi. SHundan so'ng inson hal etilgan vazifalarni maqsadlarni bilishga tashqi munosabat vositasi sifatida qabul qilyaptimi yoki uning o'zi maqsad bo'lib jarayon taqdirini belgilovchi sifatida qabul qilinayotganligiga qaraladi". Ikkinchi holatda faoliyatning harakatlanishi, faqatgina intellekt mezonlari bilan tushunarli bo'lmagan jarayonning rivojlanish fenomenikuzatiladi. SHaxsning bu mezonni bilish va motivasion omillarni butunlikdagi o'zaro ta'sirini aks ettirib, bunda bir tomonlama abstraksiyalashning imkoniyati yo'q [3].

SHuning uchun ham ijodiy qobiliyatlarni o'rganish turib kreativlikning motivasiya, emosiya va boshqa shaxslilik va psixologik mezonlar bilan munosabatini ko'rib chiqishimiz lozim. D.B.Bogoyavlenskaya insonning ta'limda rivojlanishidagi chuqur samaradorlik bilish faoliyatini turli usullar bilan qurollantirishi va uning o'zi bu usullar bila mustaqil qurollanish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'kidlaydi [3]. Fikrimizcha, o'qish faoliyatida qanday ehtiyojlar qondirilishiga o'quv jarayonini tashkil etishning o'zi katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, muammoli ta'lim o'quvchilar oldiga yangi ijodiy vazifalarni yechishni shu vaqtning o'zida bilish ehtiyojlarini aktuallashtirib ijodga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi. Insonning ijodiy faolligi va tashabbusi ushlab turilganda uning ijodga nisbatan intilishi so'nadi. Divergent qobiliyatlar M.A.Xolodnayaning fikricha, bu faoliyatning reglamentlashmagan sharoitlarida original va turli g'oyalarni ilgari surish qobiliyatidir.

Ijodga bo'lgan qobiliyatni o'rganishda asosiy o'rinni intellekt-tafakkur munosabatini o'rganish egallaydi. Intellekt ostida yangi vazifalarni aqlida tashqi qo'llash va xatolarsiz bajarish qobiliyati tushunilsa, tafakkur ostida vazifalarni yechish davonida yangilik kiritish sifatida ko'riladi [2].

Intellekt va ijodiy qobiliyatlarning munosabatini o'rganish turib V.I.Drujinin bu bo'yicha uchta nuqtai nazar mavjudligini yozadi, bular: 1. Intellekt bir vaqtning o'zida intellektual vazifalarni bajarish va ijodga bo'lgan qobiliyat hisoblanadi. 2. Ijodiy muvafaqqiyatga faqatgina yuqori intellektda erishish mumkin, lekin shu vaqtning o'zida yuqori intellekt ularni kafolatlamaydi. 3. Ijodga bo'lgan umumiy qobiliyat va umumiy intellekt bir biri bilan bog'liq hisoblanadi, lekin shunda ham ular turli qobiliyatlardir.

Aqliy faoliyat jarayonini o'rganish davomida kreativlik va intellekt orasida "resiprok bog'liqlik" aniqlanadi: bir qobiliyatning dolzarblashishi boshqa bir qobiliyat dolzarblashishiga to'sqinlik qiladi. Tafakkur motivasiyasi psixologiyada juda kam o'rganilgan murakkab muammolar sirasiga kiradi. Tafakkur motivasiyasi muammosiga birinchilardan bo'lib Z.Freyd o'z e'tiborini qaratgan bo'lib, u motivasiyaning ijod, aqllilik, tush ko'rish sifatida namoyon bo'lishini o'rganan. Z.Freyd motivasiyaning tarkibi aqlni belgilashini ta'kidlar edi. Uning fikricha, aqliy faoliyatning chegaralanishi o'ta tahlil qilish va ijodiy bilishga maylning turli taqdirining ko'rinishi edi. T.G.Bogdanova fikricha, turli motivasion vaziyatlarda ijodiy topshiriqlarni yechishda maqsadning turli jihatlari o'zgaradi.

Qo'shimcha maqsadlar o'rnatilishi hisobiga qarorlarning xilma xilligi ko'payadi. Bunda motivlar strukturali funksiyani bajaradi maqsad qo'yish jarayonlariga kirib, natijalar va tafakkurning ijodiy xarakteriga ta'sir ko'rsatadi.

Kreativlik va intellekt munosabati bo'yicha nisbatan chuqur tadqiqotlar olib borgan E.L.Grigorenko hisoblanadi. U fikrlash vazifalarini yechishda kreativlik bilan korrelyatsiyalash Torrens metodikasi bo'yicha o'lchanishi vazifalar yechimining to'g'riligi umumiy intellekt darajasi bilan korrelyatsiyalashib, Veksler intellekt testlari orqali o'lchanishini asoslaydi. Kreativlik va umumiy intellekt fikrlash vazifasini yechish jarayonini belgilovchi, lekin bir tomondan turli bosqichlarda turli o'rinlarni egallovchi qobiliyat hisoblanadi.

M.Vollax va N.Kogan kreativlik va tezkor intellekt o'rtasida omillar bog'liqligini aniqlashgan bo'lsa, Dj. Gilford va E.P.Torrens intellekt testlari va kreativlik testlari korrelyasiyasini qo'lga kiritganlar. Intellektning ideal testlari o'rtasida va real testlarda reglaminasiya darajasi pasayib boradi.

Kreativlikni ideal tipi va real testlar korrelyasiyasi mustaqillik darajasi ko'tarilishi bilan sinaluvchiga testlashtirish sharoitlarini yaratadi. Eksperimental ma'lumotlar va nazariy fikrlarga asoslanib, kreativlik va intellekt bir-biridan mustaqil bo'lgan ortogonal omil ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. SHuningdek, operatsional tarzda ular qarama-qarshidirlar: intellekt uchun mos bo'lgan sharoitlar o'z xarakteriga ko'ra kreativlik yuzaga keluvchi sharoitlarga qarama-qarshi hisoblanadi.

SHunday ekan, kreativlik va intellekt o'rtasidagi korrelyasiyadagi farqlar shu bilan tushuntiriladiki, bu mezonlarni diagnostika qilish uchun qanday mezonlar qo'llaniladi, aniqroq qilib aytganda "reglaminasiya-erkinlik" shartli kontinuumining qaysi nuqtalarida metodikalar joylashadi va ulr orasidagi masofa qancha. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi darajasini diagnostika qilishda kreativlik ijobiy sharoitlarda namoyon bo'lishini hisobga olish muhimdir. Salbiy funksional holatlar ijobiy muhitning mavjud emasligi intellektual vazifalarni bajarish natijalarini pasaytiradi. SHunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish muammosi bugungi kunga kelib hali hanuz o'z yechimini topmagan. Mavjud ma'lumotlar hali bu borada bir qator tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Азарова Л.Н. Как развивать творческую индивидуальность младших школьников // Начальная школа. - М., 1998. № 4. - 81с.
2. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. М., "Академия, 2002. – 350 с.
3. Божович Л.И. Этапы формирования личности // Л.И. Божович. - М., Воронеж, 1995. - 349с.
4. Бермус А.Г. Гуманитарная методология разработки образовательных программ // Педагогические технологии. - М., 2004. № 2. - 85с.
5. Холодная М.А. О природе творческих способностей. М. .
6. Шадриков В.Д. Развитие способностей. Начальная школа. - М., 2004. № 5. - 120с.
7. Шадриков В.Д. Способности, одаренность, талант//Развитие и одаренность. - М.: Наука. 1997. - 203с.
8. Шванцара И. Диагностика психического развития - Прага. 2008. - 204с.
9. Хуторский А.В. Развитие творческих способностей.- М.: Владос, - 2000. - 22с.
10. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. - М. - 2009. - 98с.